



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2024- YIL YANVAR-SENTABR OYLARI



## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI HAJMI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi – **10 305,5 mlrd so'mni** shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **9 773,6 mlrd so'mni**, o'rmon xo'jaligi – **406,5 mlrd so'mni**, baliqchilik xo'jaligi – **125,5 mlrd so'mni** tashkil qildi.

### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmi

#### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi

Jami  
**10 305,5**  
mlrd so'm  
o'sish sur'ati  
**103,4 %**

<u>Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar</u>	<u>Hajmi</u> <b>9 773,6</b> mlrd so'm
	<u>O'sishi</u> <b>103,4 %</b>



#### O'rmon xo'jaligi

<u>Hajmi</u> <b>406,5</b> mlrd so'm
<u>O'sishi</u> <b>103,5 %</b>




#### Baliqchilik xo'jaligi

<u>Hajmi</u> <b>125,5</b> mlrd so'm
<u>O'sishi</u> <b>107,3 %</b>

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiylajmi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.


## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o'sish sur'ati, (% da)



- Dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda – **103,4 %** ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylari mos ravishda 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan – **104,4 %**), o'rmon xo'jaligi – **103,5 %** ni (**102,1 %**), baliqchilik xo'jaligi – **107,3 %** ni (**113,2 %**) tashkil qildi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **94,8 %** i – dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **94,8 %**), **3,9 %** i – o'rmon xo'jaligi (**4,0 %**), **1,3 %** i – baliqchilik xo'jaligi (**1,2 %**) hissasiga to'g'ri keldi.


## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



2024- yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini Qoraqalpog'iston Respublikasining hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulushi Amudaryo tumanida (**20,1 %**), Beruniy tumanida (**11,8 %**), To'rtko'l tumanida (**10,6 %**), Ellikqal'a tumanida (**9,4 %**), va Chimboy tumanida (**9,0 %**) qayd etildi. Aksincha ulushi kam hududlar Taxtako'pir tumanida (**3,5 %**), Taxiatosh tumanida (**2,6 %**), Bo'zatov tumani (**2,0 %**), Mo'ynoq tumani (**1,2 %**) va Nukus shahrini (**0,6 %**) keltirib o'tish mumkin.




## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, (mlrd so'm)



2024—yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (**2 076,5 mlrdso'm**), Beruniy (**1 215,0 mlrdso'm**), To'rtko'l (**1 089,3 mlrd so'm**), Ellikqal'a (**964,7 mlrd so'm**), Chimboy (**922,5 mlrdso'm**), Xo'jayli (**556,1 mlrd so'm**) va Qo'ng'irot (**491,2 mlrd so'm**) tumanlarida qayd etildi. Shumanay (**444,9 mlrd so'm**), Kegeyli (**389,1 mlrd so'm**), Qonliko'l (**385,9 mlrd so'm**), Nukus (**373,0 mlrd so'm**) Qorao'zak (**372,2 mlrd so'm**), Taxtako'pir (**364,9 mlrd so'm**), Taxiatosh (**266,0 mlrd so'm**) va Bo'zatov (**204,6 mlrd so'm**) tumanlari xajmlar bilan yakunladi. Aksincha kam hajmga ega hudud Mo'ynoq (**125,3 mlrd so'm**) tumani va Nukus (**64,3 mlrd so'm**) shaharni keltirib o'tish mumkin.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (% da)

Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichidan (**103,4 %**) yuqori o'sish sur'atlari Amudaryo (**110,1 %**), Nukus (**108,3 %**), Shumanay (**108,2 %**), Taxiatosh (**106,4 %**) tumanlarida va Nukus (**103,6 %**) shahrida ko'rishimiz mumkin, Beruniy (**101,5 %**) Bo'zatov (**100,9 %**), Kegeyli (**100,8 %**), To'rtko'l (**100,5 %**), Ellikqal'a (**100,4 %**) Qorao'zak (**100,3 %**), Mo'ynoq (**100,3 %**), Xo'jayli (**100,2 %**) va Qonliko'l (**100,1 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024– yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **9 706,2** mlrd so'mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan **103,3 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – **3 768,6** mlrd so'mni (**100,9 %**), chorvachilik mahsulotlari – **5 937,6** mlrd so'mni (**104,9 %**) tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)

Dehqonchilik mahsulotlari




**38,8**

Chorvachilik mahsulotlari

**61,2**



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi, (% da)



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining **69,3 %** – dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **27,1 %** – fermer xo'jaliklariga, **3,6 %** – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (% da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Taxiatosh (**43,1 %**) tumanida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus (**97,3 %**) shaharda, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Amudaryo (**6,6 %**) tumanida qayd etildi. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Bo'zatov (**2,3 %**) tumanida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Taxiatosh (**51,9 %**) tumanida, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chimboy (**0,5 %**) tumanida qayd etildi.


## Aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda **5 120,5** ming so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini hududimizning hisobot davridagi o'rtacha aholisi soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2024- yilning yanvar-sentabrida **2 012,6** ming kishini tashkil etgan.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi, (ming so'm)




Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atini tahlil qilar ekanmiz:

Eng yuqori o'sish sur'atini qayd etgan hududlarga Amudaryo (**108,3 %**), Shumanay (**107,4 %**), Nukus (**106,3 %**), Taxiatosh (**105,6 %**) va Taxtako'pir (**102,9 %**) tumanlarini keltirib o'tishi lozim.

Aksincha o'sish sur'ati past hududlarga Qorao'zak (**99,8 %**), Mo'ynoq (**99,7 %**), Beruniy (**99,6 %**), Xo'jayli (**99,0 %**), Qonliko'l (**98,8 %**), To'rtko'l (**98,8 %**) va Ellikqal'a (**98,5 %**) tumanlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

### Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, (mlrd so'm)



### Qoraqalpog'iston Respublikasi 2024- yil yanvar-sentabr



*Qishloq xo'jaligidagi mahsulotlarning umumiyligi ulushida dehqonchilik mahsulotlarning umumiyligi ulushida (%) da)*

38,8



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi **38,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (**1 116,5 mlrd so'm**), Beruniy (**400,7 mlrd so'm**) va To'rtko'l (**379,2 mlrd so'm**) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bo'zatov (**25,6 mlrd so'm**), Mo'ynoq (**8,4 mlrd so'm**) tumanlari va Nukus (**12,6 mlrd so'm**) shahrini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Shumanay (**118,5 %**), Amudaryo (**116,3 %**), Taxiatosh (**113,3 %**), Nukus (**112,1 %**) va Taxtako'pir (**110,2 %**) tumanlarida qayd etildi. Mo'ynoq (**88,1 %**), Qorao'zak (**86,6 %**) va Xo'jayli (**84,2 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pasayishi kuzatildi.


## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

2024- yilning yanvar-sentabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **215,9** ming t. donli ekinlar (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **16,0 %** ga ko'p), **61,2** ming t. kartoshka (**8,1 %** ga ko'p), **215,7** ming t. sabzavotlar (**6,9 %** ga ko'p), **132,4** ming t. poliz (**3,8 %** ga ko'p), **46,9** ming t. meva va rezavorlar (**16,1 %** ga ko'p), **6,1** ming t. uzum (**10,0 %** ga ko'p) yetishtirildi.

### 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
<b>Donli ekinlar</b>	215,9	116,0	166,3	116,0	26,5	101,5	23,1	138,8
<b>Sabzavotlar</b>	215,7	106,9	65,0	113,8	146,6	103,5	4,1	137,6
<b>Kartoshka</b>	61,2	108,1	16,9	121,8	43,9	103,6	0,4	125,0
<b>Poliz ekinlari</b>	132,4	103,8	65,0	105,6	65,2	101,1	2,2	137,9
<b>Meva va rezavorlar</b>	46,9	116,1	16,8	131,2	23,8	101,6	6,3	151,6
<b>Uzum</b>	6,1	110,0	1,3	159,4	4,3	101,7	0,5	100,4

## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulushi, (% da)




- *Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar*
- *Dehqon va tomorqa xo'jaliklari*
- *Fermer xo'jaliklari*

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishda **77,0 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **12,3 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda xo'jalik toyfalarining ulushlari sabzavot yetishtirishda (**30,1 %**, **68,0 %**, **1,9 %**) ga, shuningdek, kartoshka yetishtirishda (**27,7 %**, **71,7 %**, **0,6 %**) ga , poliz ekinlari yetishtirishda (**49,1 %**, **49,2 %**, **1,7 %**) ga, meva va rezavorlar yetishtirishda (**35,8 %**, **50,8 %**, **13,4 %**) ga hamda uzum yetishtirishda (**21,2 %**, **70,7 %**, **8,1 %**) ga to'g'ri keldi.

## DONLI EKINLAR

Hajmi, ming tonna




2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **215,9** ming tonna donli ekinlar yetishtirildi.

Donli ekinlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, don ekinlari yetishtirishning eng katta hajmi – **166,3** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda donli ekinlar yetishtirish hajmi 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda **116,0 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **116,0 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **101,5 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **138,8 %** tashkil etdi.

O'sish sur'ati, (%) da)



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, (%) da)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan donli ekinlar ma'lumotlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishda **77,0 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **12,3 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **10,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA DON YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>215 903,0</b>	<b>100,0</b>	<b>116,0</b>
Nukus sh.	9,0	0,01	78,9
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	55 777,4	25,8	113,3
Beruniy	23 080,0	10,7	102,0
Bo'zatov	1 765,4	0,8	103,5
Qorao'zak	7 672,6	3,6	105,9
Kegeyli	6 494,3	3,0	119,2
Qo'ng'irot	11 532,3	5,3	153,2
Qonliko'l	15 707,0	7,3	105,3
Mo'ynoq	799,7	0,4	161,1
Nukus t.	13 357,5	6,2	159,2
Taxiatosh	3 982,1	1,8	125,1
Taxtako'pir	9 231,1	4,3	195,6
To'rtko'l	18 704,6	8,7	100,2
Xo'jayli	7 485,1	3,5	130,8
Chimboy	11 807,6	5,5	104,6
Shumanay	12 700,8	5,9	139,2
Ellikqal'a	15 796,5	7,3	100,2

## Donli ekinlar




Don ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtaida pesh-qadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, don ekinlari umumiylajmidagi ulushi **25,8 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Beruniy (**10,7 %**), To'rtko'l (**8,7 %**), Ellikqal'a (**7,3 %**), Qonliko'l (**7,3 %**) va Nukus (**6,2 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiylajmidagi past ulush, Bo'zatov (**0,8 %**), Mo'ynoq (**0,4 %**) tumanlarida va Nukus (**0,01 %**) shahrida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir (**195,6 %**), Mo'ynoq (**161,1 %**), Nukus (**159,2 %**), Qo'ng'irot (**153,2 %**) va Shumanay (**139,2 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati Nukus (**78,9 %**) shahrida kuzatish mumkin.

# SABZAVOTLAR




2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **215,7** ming tonna sabzavot yetishtirildi.

Sabzavotlar yetishtirish ko'rsat-kichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning eng katta hajmi – **146,6** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda sabzavot yetishtirish hajmi 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda **106,9 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **13,8 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **3,5 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **37,6 %** o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati, (%) da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (%) da



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan sabzavot ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishda **30,1 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **68,0 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **1,9 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>215 716,0</b>	<b>100,0</b>	<b>106,9</b>
Nukus sh.	2 642,9	1,2	108,3
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	53 647,4	24,9	107,3
Beruniy	15 359,9	7,1	100,4
Bo'zatov	1 513,1	0,7	101,0
Qorao'zak	5 676,5	2,6	122,8
Kegeyli	6 134,7	2,8	103,6
Qo'ng'irot	6 924,2	3,2	110,4
Qonliko'l	9 252,3	4,3	109,0
Mo'ynoq	626,1	0,3	67,8
Nukus t.	15 316,1	7,1	108,6
Taxiatosh	5 241,7	2,4	100,8
Taxtako'pir	4 283,5	2,0	104,5
To'rtko'l	24 126,5	11,2	109,4
Xo'jayli	6 653,3	3,1	86,8
Chimboy	20 157,1	9,3	103,3
Shumanay	12 534,1	5,8	109,5
Ellikqal'a	25 626,6	11,9	115,6

## Sabzavotlar




Sabzavot yetish-tirish bo'yicha hududlar o'tasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, sabzavot ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **24,9 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Ellikqal'a (**11,9 %**), To'rtko'l (**11,2 %**), Chimboy (**9,3 %**), Beruniy (**7,1 %**), va Nukus (**7,1 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiyligi hajm-dagi past ulush, Bo'zatov (**0,7 %**) va Mo'ynoq (**0,3 %**) tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qorao'zak (**122,8 %**), Ellikqal'a (**115,6 %**), Qo'ng'irot (**110,4 %**) va Shumanay (**109,5 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Xo'jayli (**86,8 %**) va Mo'ynoq (**67,8 %**) tumanlarida kuzatish mumkin.

# KARTOSHKA

Hajmi, ming tonna




2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **61,2** ming tonna kartoshka yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi – **43,9** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda kartoshka yetishtirish hajmi 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda **108,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **21,8 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **3,6 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **25,0 %** o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati, (% da)



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan kartoshka ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishda **27,7 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **71,7 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **0,6 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA KARTOSHKALAR YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>61 156,0</b>	<b>100,0</b>	<b>108,1</b>
Nukus sh. <i>tumanlar:</i>	14,6	0,02	105,0
Amudaryo	15 936,7	26,1	103,2
Beruniy	7 988,8	13,1	100,5
Bo'zatov	904,0	1,5	109,3
Qorao'zak	1 101,2	1,8	102,9
Kegeyli	1 012,2	1,7	129,8
Qo'ng'iroq	4 389,9	7,2	105,2
Qonliko'l	1 144,1	1,9	133,7
Mo'ynoq	180,0	0,3	84,1
Nukus t.	2 057,4	3,4	105,3
Taxiatosh	1 725,8	2,8	108,1
Taxtako'pir	2 384,3	3,9	110,8
To'rtko'l	10 016,9	16,4	125,7
Xo'jayli	3 005,9	4,9	101,2
Chimboy	3 981,9	6,5	107,3
Shumanay	1 269,4	2,1	127,6
Ellikqal'a	4 042,9	6,6	104,1

## Kartoshka




Kartoshka yetish-tirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, kartoshka ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **26,1 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**16,4 %**), Beruniy (**13,1 %**), Qo'ng'iroq (**7,2 %**) Ellikqal'a (**6,6 %**), va Chimboy (**6,5 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiyligi hajm-dagi past ulush, Bo'zatov (**1,5 %**) tumanida, Mo'ynoq (**0,3 %**) tumanida va Nukus (**0,02 %**) sharida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qonliko'l (**133,7 %**), Kegeyli (**129,8 %**), Shumanay (**127,6 %**), To'rtko'l (**125,7 %**), Taxtako'pir (**110,8 %**), Bo'zatov (**109,3 %**) va Taxiatosh (**108,1 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Mo'ynoq (**84,1 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# POLIZ EKLNLARI




2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **132,4** ming tonna poliz ekinlari yetishtirildi.

Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning eng katta hajmi – **65,2** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda poliz ekinlari yetishtirish hajmi 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda **103,8 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **105,6 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **101,1 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **137,9 %** tashkil etdi.

O'sish sur'ati, (% da)



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, (% da)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan poliz ekinlari ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishda **49,1 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **49,2 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **1,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA POLIZ EKINLARI YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>132 419,0</b>	<b>100,0</b>	<b>103,8</b>
Nukus sh. <i>tumanlar:</i>	148,7	0,1	25,6
Amudaryo	30 396,0	23,0	117,1
Beruniy	16 695,7	12,6	99,1
Bo'zatov	1 994,0	1,5	103,0
Qorao'zak	4 541,3	3,4	101,7
Kegeyli	4 131,7	3,1	90,6
Qo'ng'irot	4 269,6	3,2	100,1
Qonliko'l	8 268,6	6,2	111,9
Mo'ynoq	266,1	0,2	37,8
Nukus t.	7 738,2	5,8	111,6
Taxiatosh	3 224,5	2,4	100,8
Taxtako'pir	3 800,3	2,9	101,2
To'rtko'l	10 823,6	8,2	103,7
Xo'jayli	4 671,3	3,5	109,2
Chimboy	13 092,3	9,9	101,6
Shumanay	7 384,8	5,6	82,1
Ellikqal'a	10 972,3	8,3	105,5


## Poliz ekinlari

Polizlar yetishti-rish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, poliz ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **23,0 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Beruniy (**12,6 %**), Chimboy (**9,9 %**), Ellikqal'a (**8,3 %**), To'rtko'l (**8,2 %**) va Qonliko'l (**6,2 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajm-dagi past ulush, Mo'ynoq (**0,2 %**), tumanida va Nukus (**0,1 %**) shahrida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Amudaryo (**117,1**), Qonliko'l (**111,9 %**), Nukus (**111,6 %**), Xo'jayli (**109,2 %**) va Ellikqal'a (**105,5 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Shumanay (**82,1 %**), Mo'ynoq (**37,8 %**) tumanlarida va Nukus (**25,6 %**) shahrida kuzatish mumkin.

# MEVA VA REZOVORLAR




2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **46,9** ming tonna meva va rezovorlar yetishtirildi.

Meva va rezovorlar yetishtirish ko'satkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva yetishtirishning eng katta hajmi – **23,8** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda meva va rezovorlar yetishtirish hajmi 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda **116,1 %** ni tashkil etdi.


2023- yilning mos davriga nisbatan ko'satib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **31,2 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **1,6 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **51,6 %** o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati, (% da)



Ishlab chiqarilgan mahsulotning

xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, (% da)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan meva va rezovorlar ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezovorlar yetishtirishda **35,8 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **50,8 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **13,4 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA MEVA VA REZOVORLAR YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>46 878,0</b>	<b>100,0</b>	<b>116,1</b>
Nukus sh.	24,2	0,1	109,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	18 269,5	39,0	141,9
Beruniy	5 416,5	11,6	99,0
Bo'zatov	605,9	1,3	102,5
Qorao'zak	824,0	1,8	101,7
Kegeyli	1 540,4	3,3	99,3
Qo'ng'irot	1 755,4	3,7	100,7
Qonliko'l	1 215,0	2,6	117,2
Mo'ynoq	106,7	0,2	103,6
Nukus t.	999,3	2,1	101,3
Taxiatosh	671,3	1,4	112,4
Taxtako'pir	615,7	1,3	105,1
To'rtko'l	6 365,3	13,6	102,5
Xo'jayli	1 238,5	2,6	102,2
Chimboy	2 184,8	4,7	104,5
Shumanay	871,3	1,9	101,3
Ellikqal'a	4 174,2	8,9	114,8


## Meva va rezovorlar



Meva va rezovorlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtaida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, meva ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **39,0 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**13,6 %**), Beruniy (**11,6 %**), Ellikqal'a (**8,9 %**), Chimboy (**4,7 %**) va Qo'ng'irot (**3,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajm-dagi past ulush, Mo'ynoq (**0,2 %**) tumanida va Nukus shahrida (**0,1 %**) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Amudaryo (**141,9**), Qonliko'l (**117,2 %**), Ellikqal'a (**114,8 %**), Taxiatosh (**112,4 %**) tumanlarida va Nukus (**109,5 %**) shahrida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Kegeyli (**99,3 %**) va Beruniy (**99,0 %**) tumanlarida kuzatish mumkin.




2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **6 095 tonna** uzum yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishning eng katta hajmi – **4 310 tonna** dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda uzum yetishtirish hajmi 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda **110,0 %** ni tashkil etdi.


2023- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **159,4 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **101,7 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **100,4 %** tashkil etdi.

**O'sish sur'ati, (%) da)**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning**

**xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, (%) da)**



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan uzum ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishda **21,2 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **70,7 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **8,1 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

# HUDUDLAR BO'YICHA UZUM YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>6 095,0</b>	<b>100,0</b>	<b>110,0</b>
Nukus sh. <i>tumanlar:</i>	62,2	1,0	103,7
Amudaryo	1 803,6	29,6	131,0
Beruniy	914,4	15,0	100,2
Bo'zatov	57,0	0,9	107,3
Qorao'zak	121,2	2,0	103,3
Kegeyli	84,1	1,4	98,6
Qo'ng'irot	461,0	7,6	101,2
Qonliko'l	258,0	4,2	124,6
Mo'ynoq	12,9	0,2	107,5
Nukus t.	255,7	4,2	106,6
Taxiatosh	175,9	2,9	108,9
Taxtako'pir	194,7	3,2	101,7
To'rtko'l	732,6	12,0	100,5
Xo'jayli	252,8	4,1	100,2
Chimboy	217,6	3,6	101,9
Shumanay	60,2	1,0	109,5
Ellikqal'a	431,1	7,1	103,2

## Uzum




Uzum yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, uzum ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **29,6 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Beruniy (**15,0 %**), To'rtko'l (**12,0 %**), Qo'ng'irot (**7,6 %**) Ellikqal'a (**7,1 %**) va Qonliko'l (**4,2 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiyligi hajm-dagi past ulush, Bo'zatov (**0,9 %**) va Mo'ynoq (**0,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Amudaryo (**131,0 %**), Qonliko'l (**124,6 %**), Shumanay (**109,5 %**), Taxiatosh (**108,9 %**) va Mo'ynoq (**107,5 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Kegeyli (**98,6 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

## Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, (mlrd so'm)



## Qoraqalpog'iston Respublikasi 2024- yil yanvar-sentabr



61,2



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi **61,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (**844,6** mlrd so'm), Beruniy (**785,1** mlrd so'm) va To'rtko'l (**684,6** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo'ynoq (**79,2** mlrd so'm) tumani va Nukus (**34,1** mlrd so'm) shahrini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Ellikqal'a (**108,1 %**), Qorao'zak (**108,0 %**), To'rtko'l (**107,2 %**) va Beruniy (**107,1 %**) tumanlarida qayd etildi. Mo'ynoq (**99,5 %**) tumanida esa aksincha o'sish sur'ati pasayishi kuzatildi.


## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Barcha toifadagi xo'jaliklar	shu jumladan:						
		fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		
		ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	
Go'sht (tirik vaznda)	85,9	105,3	3,5	98,8	81,1	105,3	1,2	130,0
Sut	269,3	105,3	21,7	96,1	244,7	106,4	2,9	89,8
Tuxum (mln dona)	270,9	105,2	21,4	102,6	224,3	103,2	25,2	130,3
Jun, tonna	1 189	102,6	201	101,5	960	102,8	28	103,7
Qorako'l teri, (ming dona)	85,2	101,8	5,4	101,8	78,9	101,9	1,0	90,2
Baliq	6,2	106,7	2,4	100,4	1,1	107,0	2,6	113,1

2024- yilning yanvar-sentabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **85,9** ming tonna go'sht, **269,3** ming tonna sut, **270,9** mln dona tuxum, **1 189** tonna jun, **85,2** ming dona qorako'l teri va **6,2** ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – **105,3 %** ni, sog'ib olingan sut – **105,3 %** ni, olingan tuxum – **105,2 %** ni, qirqib olingan jun – **102,6 %** olingan qorako'l teri – **101,8 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **106,7 %** ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini etishtirishda xo'jalik toifalarining ulushi, (% da)



